

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 259 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anjonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOB VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	



KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

M.I.Murodova

Namangan davlat texnika univrsiteti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi o'qituvchisi,

ulugbektursunov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi holati, unda qo'llaniladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda hisob siyosatini shakllantirish tamoyillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'nalishlari, raqamlashtirish jarayonining buxgalteriya faoliyatiga ta'siri hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) moslashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonuni, “Hisobvaraqlar rejasi” hamda tegishli yo'riqnomalar asosida ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, hisobvaraqlar rejasi, raqamli buxgalteriya, xarajatlar, tannarx, audit, iqtisodiy tahlil.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the current state of accounting practices in enterprises, the regulatory framework governing accounting activities, and the principles of forming accounting policies. It also explores key directions for improving accounting procedures, the impact of digitalization on accounting operations, and the alignment of national accounting systems with International Financial Reporting Standards (IFRS). The proposed recommendations are based on the Law of the Republic of Uzbekistan “On Accounting,” the “Chart of Accounts,” and relevant methodological guidelines.

Keywords: accounting, financial reporting, chart of accounts, digital accounting, expenses, cost, audit, economic analysis.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ современного состояния бухгалтерского учета на предприятиях, нормативно-правовых актов, регулирующих учетную деятельность, и принципов формирования учетной политики. Особое внимание уделяется направлениям совершенствования бухгалтерского учета, влиянию цифровизации на учетные процессы, а также адаптации национальной системы учета к Международным стандартам финансовой отчетности (МСФО). Разработанные предложения основаны на Законе Республики Узбекистан «О бухгалтерском учете», «Плане счетов бухгалтерского учета» и соответствующих инструкциях.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, финансовая отчетность, план счетов, цифровой учет, расходы, себестоимость, аудит, экономический анализ.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini asoslashda buxgalteriya hisobi muhim o'rin tutadi. Buxgalteriya hisobi nafaqat xo'jalik jarayonlarini hujjatlashtirish va ularni nazorat qilish vositasi, balki korxonaning iqtisodiy salohiyatini baholash, investitsion jozibadorligini aniqlash hamda davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarish uchun zarur axborot manbai hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi sohasida olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotning shaffofligini ta'minlash, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) bosqichma-bosqich o'tish va raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, Oliy Majlisning 280/1-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Moliyaviy hisob to'g'risida”gi qonun buxgalteriya hisobining huquqiy asoslarini belgilab, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida hisob siyosatini to'g'ri tashkil etish uchun zarur me'yoriy sharoitni yaratdi.

Bugungi kunda korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tizimini takomillashtirish zaruriyati bir necha omillar bilan izohlanadi. Ulardan eng muhimi — iqtisodiy axborotlarning ishonchlilikini oshirish, moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor va tahliliy ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish ehtiyojidir. Shu sababli, buxgalteriya



hisobini zamonaviy talablarga mos holda tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tadqiqotda korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishning me'yoriy asoslari, amaliy holati hamda uni yanada takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining muhim boshqaruv elementi hisoblanadi. U xo'jalik operatsiyalarining hujjatlashtirilgan tarzda qayd etilishini, moliyaviy natijalarning haqqoniyligini va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini ta'minlaydi. Adabiyotlarda buxgalteriya hisobining metodologik asoslari, me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishi hamda uni xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirish yo'nalishlari keng o'rganilgan.

1. Buxgalteriya hisobining nazariy asoslari

O'zbekistonlik olimlar Sh. Jo'rayev va M. Xolmirzayev o'z tadqiqotlarida buxgalteriya hisobining nazariy asoslari, uning iqtisodiy axborot tizimidagi o'rni va boshqaruv jarayonlaridagi ahamiyatini yoritganlar. Ularning fikricha, buxgalteriya hisobi nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

A. Fayziyev o'z ilmiy ishlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish nazariy jihatdan ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlaydi: birinchidan, hisobni yuritish metodikasini xalqaro standartlarga moslashtirish; ikkinchidan, raqamli texnologiyalar asosida buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish.

2. Hisobni yuritishning me'yoriy asoslari

I. To'xtaboyevning tadqiqotlarida buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish, hisob siyosatini shakllantirish va uni amaliyotda qo'llash masalalari tahlil etilgan. Olim buxgalteriya hisobining milliy standartlari bilan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash buxgalteriya hisobotlarining ishonchligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Xalqaro miqyosda Christopher Nobes va Robert Parker o'zlarining "Comparative International Accounting" nomli asarlarida turli mamlakatlardagi buxgalteriya tizimlarini solishtirib, milliy standartlarning barqarorligi va izchilligi hisobot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab berganlar.

3. Amaliy jihatlar va hisobni tashkil etish

Mahalliy tadqiqotchilar N. Ergasheva va Z. G'ulomova tomonidan o'tkazilgan ilmiy ishlar korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishdagi amaliy muammolarni aniqlashga qaratilgan. Ularning ta'kidlashicha, hujjat aylanishining kechikishi, hisobvaraqlar rejasining to'liq qo'llanilmasligi va hujjatlarni arxivlashdagi kamchiliklar hisob natijalarining aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, R. Horngren, W. Harrison va C. Thomas tomonidan yozilgan "Accounting" asarida buxgalteriya hisobining memorial-order, jurnal-order, bosh daftar va avtomatlashtirilgan shakllari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Mualliflar korxona hajmi, hisob ishlarining murakkabligi va xodimlar malakasiga qarab tegishli shaklni tanlash zarurligini asoslab o'tganlar.

4. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari

Zamonaviy buxgalteriya hisobining rivojlanishida raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi. M. Karimov va G. Islomova o'z maqolalarida axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi va buxgalteriya dasturlari yordamida hisobni avtomatlashtirishning ustunliklarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, raqamlashtirish nafaqat hisob jarayonlarini tezlashtiradi, balki xatoliklarni kamaytiradi, bu esa korxonaning moliyaviy natijalarini yanada ishonchli aks ettiradi.

5. Ilmiy xulosalar

Tahlil qilingan adabiyotlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Bunda nazariy asoslarning mustahkamlanishi, me'yoriy hujjatlarning izchilligi, amaliy jarayonlarning avtomatlashtirilishi hamda malakali mutaxassislar tayyorlash muhim o'rin tutadi. Ilmiy manbalarda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishning asosiy maqsadi — moliyaviy axborotlarning haqqoniyligi, shaffofligi va foydalanuvchilar uchun qulayligini ta'minlashdan iborat ekani qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi korxonalarda buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalasini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda ma'lumotlar turli manbalardan — amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, korxonalar moliyaviy hisobotlari, milliy va xorijiy ilmiy maqolalar hamda statistik ma'lumotlar bazasidan olindi. Tadqiqot jarayonida hujjatlar tahlili, solishtirma yondashuv, kuzatish va tahliliy sintez usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy tahlil asosida umumlashtirilib, buxgalteriya hisobining amaldagi holatini baholash hamda uni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish jarayoni me'yoriy-huquqiy asoslar bilan tartibga solingan bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanilishida bir qator tizimli kamchiliklar mavjud. Jumladan, buxgalteriya hisobining ayrim moddolari, xususan, imzo huquqi, bosh buxgalterning vakolatlari va hisob siyosatini shakllantirishdagi mas'uliyatlar to'liq aniqlashtirilmagan. Bu holat moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning bir xillik darajasini pasaytirib, ichki nazorat tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlil jarayonida korxonalarning buxgalteriya hisob shakllaridan foydalanish tajribasi o'rganilib, ularning aksariyatida memorial-order va jurnal-order shakllari qo'llanilayotgani, ammo avtomatlashtirilgan hisob tizimlariga o'tish darajasi past ekani aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, elektron buxgalteriya tizimlaridan foydalanish ma'lumotlar aniqligini oshiradi, hisobot tayyorlash muddatini qisqartiradi hamda inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi.

Bundan tashqari, korxonalarning buxgalteriya hisobi tizimida pul mablag'larini hisobga olish, akkreditivlar va xorijiy valyuta operatsiyalarini yuritishda mavjud bo'lgan ayrim kamchiliklar tahlil qilindi. Xususan, ta'minlangan va ta'minlanmagan akkreditivlar uchun alohida hisobvaraqlar mavjud emasligi aniqlanib, bu amaliyot korxonaning likvidlik holatini aniq baholash imkoniyatini cheklayotganligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish uchun bir necha yo'nalishlar belgilandi: birinchidan, rahbar va bosh buxgalterning mas'uliyat doirasini aniq belgilovchi normativ me'yorlarni takomillashtirish; ikkinchidan, hisobvaraqlar rejasini yangilab, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) moslashtirish; uchinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali hisob yuritish jarayonini avtomatlashtirish.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya hisobi tizimining zamonaviy shaklga o'tishi korxonalarda moliyaviy axborotlarning ishonchligi, shaffofligi va tahliliy foydalanuvchanligini oshiradi. Shu bilan birga, bu yo'nalishdagi takomillashtirishlar rahbarlarning iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida yanada asosli, tezkor va samarali yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimi iqtisodiy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning to'g'ri tashkil etilishi moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy shaffoflik va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim o'rin tutadi. Biroq, amaliyotda hisob yuritish tartibining ayrim jihatlari, xususan, rahbar va bosh buxgalterning mas'uliyat doirasi, imzo huquqi, hisobvaraqlar rejasining to'liq qo'llanilmasligi hamda buxgalteriya ma'lumotlarini arxivlashtirish tartibi yetarli darajada takomillashmagan. Shu bois, buxgalteriya hisobi jarayonini xalqaro talablarga muvofiqlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurati mavjud.

Tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari surildi:

Birinchidan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning ayrim moddolari, xususan, 9-, 11- va 13-moddalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Unda rahbarning moliyaviy hisobni mustaqil yuritish huquqi faqat tegishli malakaga ega shaxslarga nisbatan qo'llanishi belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv hisob axborotlarining ishonchligini ta'minlaydi va buxgalteriya intizomini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, hisob yuritish jarayonida bosh buxgalterning vakolat va javobgarligini kengaytirish, u tomonidan ichki nazorat tizimini shakllantirish va xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligini doimiy tahlil qilib borish mexanizmini joriy etish lozim. Shu bilan birga, korxona rahbari moliyaviy hisobotning to'g'ri va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun zarur tashkiliy shart-sharoit yaratish bilan bog'liq mas'uliyatni zimmasiga olishi kerak.

Uchinchidan, buxgalteriya hisobi jarayonida elektron hujjat aylanishi tizimlarini keng joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv nafaqat hujjatlar bilan ishlashda aniqlik va tezkorlikni ta'minlaydi, balki inson omili sababli yuzaga keladigan xatoliklarni kamaytiradi. Raqamlashtirish orqali buxgalteriya ma'lumotlarining saqlanishi, qayta ishlanishi va tahlili yengillashadi.

To'rtinchidan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) moslashgan holda yangi hisobvaraqlar rejasini ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, akkreditivlar, cheklar va xorijiy valyuta operatsiyalarini hisobga olish uchun mustaqil hisobvaraqlarni joriy etish buxgalteriya ma'lumotlarining to'liqligi va aniqligini oshiradi.

Beshinchidan, buxgalteriya kadrlarining kasbiy malakasini oshirish, ularni xalqaro buxgalteriya amaliyotiga oid bilimlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish lozim. Chunki yuqori malakali mutaxassis buxgalteriya hisobini nafaqat to'g'ri yuritadi, balki korxona moliyaviy boshqaruvida faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan islohotlar moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatida shaffoflikni kuchaytiradi hamda boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sh.R. Jo'rayev, M.M. Xolmirzayev. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 312 b.
2. A. Fayziyev. Buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Moliya, 2020. – 228 b.
3. I.T. To'xtaboyev. Hisob siyosatini shakllantirish va buxgalteriya hisobini takomillashtirish yo'nalishlari. – T.: Iqtisodiyot va ta'lim, 2022. – 184 b.
4. C. Nobes, R. Parker. Comparative International Accounting. – London: Pearson Education, 2020. – 622 p.
5. N.O. Ergasheva, Z.Sh. G'ulomova. Korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. – T.: Ilmiy iqtisodiy jurnali, 2023. – 145 b.
6. C.T. Horngren, W.T. Harrison, C.W. Thomas. Accounting. – New Jersey: Pearson Prentice Hall, 2019. – 936 p.
7. M. Karimov, G.Sh. Islomova. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish. – T.: Innovatsion iqtisodiyot jurnali, 2024. – 198 b.
8. X.N. Xayrullayeva. Improving the regulatory framework of accounting in Uzbekistan on the basis of International Financial Reporting Standards (IFRS). – T.: AJIRD, 2024. – 167 b.
9. R.S. Arziboeva. Impact of the implementation of IFRS in banks on the quality of accounting. – T.: The Innovation Economy Journal, 2025. – 154 b.
10. Z. Atabayeva. Development of accounting in the context of market conditions. – T.: International Journal of Management, Economics and Finance, 2023. – 203 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100